

“BERDAQ: O’Z DAVRINING OVOZI”*Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti**2 – pediatriya va Fundamental Tibbiyot fakulteti**1 – kurs talabasi **Sobirova Nasibaxon Jamoliddin qizi***

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asrning taniqli qoraqalpoq adibi Berdaqning ijodiy merosi, u yashagan davrning ijtimoiy muammolari va milliy uygʻonish jarayonlaridagi oʻrni haqida soʻz yuritiladi. Adibning sheʼriyatida xalqning dard – u hasrati, adolat va haqiqatga intilishlari aks etgani tahlil qilindi. Maqola davomida Berdaqning asarlari orqali jamiyatdagi muammolarni qanday yoritgani va bu orqali oʻz davrining ovozigʻa aylangani keng yoritiladi. Shuningdek, Berdaq sheʼriyati va uning merosi nechogʻlik qadrlanishi masalalari ham koʻrib chiqiladi.

Kalit soʻzlar: chirkin, tabaqalanish, istilochilar, maʼrifiy, durdona siymolar, falsafiy, maʼnaviy boylik, faylasuf.

Berdag – qoraqalpoq va oʻzbek adabiyotining durdona siymolaridan biri boʻlib, XIX asrda yashab oʻtgan. U oʻz sheʼrlari orqali xalqning ichki kechinmalari, ijtimoiy muammolari va adolatga boʻlgan ehtiyojlarini jonli tasvirlay olgan buyuk shoirdir. Berdaq ijodi nafaqat adabiyotshunoslar, balki butun xalq uchun maʼnaviy boylik hisoblanadi. Shoirning asarlari shunday kuchga egaki, ular faqat badiiy asar emas, balki tarixiy, ijtimoiy va falsafiy xulosalarga boy merosdir.

Berdagning hayoti XIX asrning murakkab davrlariga toʻgʻri kelgan. U yashagan davrda qoraqalpoq xalqi ijtimoiy va iqtisodiy muammolar bilan toʻqnash kelgan edi. Xalqning ogʻir hayoti, adolatsizlik va zulm, milliy uygʻonish harakatlari berdaqning ijodiy asarlarida oʻz aksini topdi. U oʻz asarlari orqali xalqning ovozigʻa aylana oldi va uning dardini butun dunyoga yetkazishga harakat qildi. Shoirimizning sheʼrlari oʻsha davrda hukm surgan zulmga qarshi kuchli qarshilik ruhiga toʻla edi. Uning asarlarida xalqning qashshoqligi, boy va kambagʻallar oʻrtasidagi tabaqalanish, ijtimoiy adolatsizlik kabi masalalar ochib berilgan. “Xalq uchun” kabi sheʼrlari orqali Berdaq nafaqat xalqning dardini kuylagan, balki bu dardni bartaraf etishga chaqirgan. Uning sheʼrlaridagi hissiyotlar, maʼno va ramzlar oʻquvchini befarq qoldirmaydi.

Berdagning ijodida adolat va haqiqatni targʻib etish bosh mavzulardan biri boʻldi. U oʻz sheʼrlarida jamiyatdagi nodonlikni qoralab, odamlarga bilim va madaniyatning ahamiyatini tushuntirdi. Shoirning soʻzlarida xalqni uygʻotish, uni kurashga chaqirish kuchi mavjud edi. Berdaq istilochilar

tomonidan ezilgan qoraqalpoq xalqining ko'ksiga qachon istiqloq, ozodlik, quyoshi tegarkin ilinjini "Yoz kelurmi" she'ri orqali juda chiroyli tasvirlab berganini yodaga olaylik.

Masalan quyidagi satrlari orqali:

Dovul turdi, tuman yurdi,
Fuqaroga yoz kelurmi?
Qo'shnimning qamishin surdi,
Fuqaroga yoz kelurmi?

Qish va yoz faslining qarama – qarshi qo'yish asnosida shoir aytmoqchiki, istilochilarning hatti – harakati qishga, fuqaroga ozodlik kelishi yozga tenglashtiriladi.

Jon achitar qora sovuq,
Yoz kelmasdan bo'ldi sovuq.
Umr bo'yi shunday xo'rlik,
Fuqaroga yoz kelurmi?

Qishning qahri shunchalik qattiq keldiki, bechora fuqarolarning ichishga yovg'oni, yurishga ot – ulovi, yotishga to'shak – to'shi qolmadi.

Yovg'onim yo'q, ichay desam,
Ot – ulov yo'q, ko'chay desam.
To'shagim yo'q to'shay desam,
Sho'rlik elga yoz kelurmi?

Milliy uyg'onish jarayonida Berdaqning ro'li beqiyos edi. U qoraqalpoq adabiyotini yangi bosqichga olib chiqdi. Shoirning ijodi faqat badiiy mahorat bilan cheklanib qolmay, balki milliy ongini rivojlantirishga xizmat qildi. Berdaq xalqni birlashtirish va o'zligini anglashga chorlovchi yetakchi ovoz edi. Uning asarlari bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega. Uning ijodi yosh avlodni ma'naviy tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Berdaq she'rlari orqali yoshlarga adolat, mehnatsevarlik, haqiqatga intilish kabi qadriyatlarni singdirish mumkin.

Berdag arzimagan narsalar uchun odamlar bir – biridan o'ch olish, o'ldirish, jarohatlarni nodonlik, ko'rlik belgisi deb hisoblaydi va bu illatlarni xalq ommasining manfaatlariga zid deb biladi. Berdaq ijtimoiy – siyosiy qarashlarining yana bir asosiy tomoni xotin – qizlarning jamiyatdagi tutgan o'rni masalasida ham

ochiq – oydin ko'rinadi. Ma'lumki, xotin – qizlarning rahmsiz ezilishi va kamsitilishiga o'tmishning qoloq, chirkin urf – odatlari, yaramas qonun – qoidalari sabab bo'lgan edi. Xotin – qizlarning kamsitilayotganligini, ularning haq – huquqlari oyoq osti qilinayotganligini o'z ko'zi bilan ko'rgan, yurak – yuragidan his qilgan Berdaq bunday razolatga befarq qarab tura olmadi, munis va muhtaram ayollarni himoya qildi.

Berdag xotin – qizlarni oiladagi, turmushdagi, umuman jamiyatdagi o'rni xususida o'z zamonasi uchun juda ilg'or fikrlarni ilgari surdi. U xotin – qizlarni erkaklarning hamfikri, ularning kuchiga kuch, quvvatiga quvvat qo'shadigan, hayotiga bezak beradigan jonkuyar hamroh deb biladi. Berdaq ayniqsa, ayollardagi odob – u ikromini, soddalik va muloyimlikni, kamtarlik va oliyjanoblikni ulug'laydi. Shoirning ijtimoiy – siyosiy qarashlarida axloqiy masalalar ham katta o'rin tutadi. Uning pand – nasihatli she'rlari, zolimlikni, adolatsizlikni, adolatsizlikni, takabburlikni va maqtancholikni, nomardlik va ikkiyuzlamachilikni qattiq qoralagan, yuksak insoniy axloqni ulug'lagan. Shu sababli iste'dodli shoirning ijtimoiy mazmundagi asarlari uzoq zamonlardan beri O'rta Osiyo xalqlari shoir va baxshilarning dilidan chuqur joy olgan, ularga jo'shqin ilhom berib kelgan.

Shoirimiz bu yorug' olamdagi jamiki narsalar va ezgulik tamoyillari faqat inson uchun, shuningdek uning yorqin kelajagi uchun xizmat qilishi kerak deb hisoblaydi. Tabiatdagi va jamiyatdagi moddiy, ma'naviy hamda ma'rifiy boyliklar insonning bu hayotda yaxshi va mukammal yashashi uchun yaratilgan deb ta'kidlaydi. Bunday qarashlar qadimgi Yunoniston, Rim, Hind, Xitoy hamda o'rta asr va zamonaviy dunyo faylasuflarida ham ko'p uchragan. Olam yaratilgandan buyon uning noz – u ne'matlaridan inson bahra olib yashaydi. Berdaq uchun narigi dunyoni huzur – halovati va lazzatlaridan ko'ra bu dunyoni, ya'ni haqiqiy dunyoni ustun qo'yadi. Chunki u narigi dunyoning lazzatlari haqida kafolatga unchalik ishonmaydi. Uning uchun xon ham, bek ham inson sifatida teng bo'lishi kerak deb hisoblaydi.

O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda Berdaq tavalludining 170 yilligi keng nishonlandi(1998). Shoir tug'ilgan joy Bo'zatovda ham haykali o'rnatilgan. Nukusda ham haykali qo'yilgan, musiqalidrama teatri, ko'cha va maktabga Berdaq nomi berilgan. Berdaq shoirlik, baxshichilik, sozandalikda tengi yo'q, iste'dodli shaxslardan bo'lgan. Zamonasining taniqli va barchaning hurmatiga sazovor bo'lgan, el ardog'idagi shoirlardan bo'lgan.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsam Berdaqning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan adabiy, ijtimoiy – siyosiy va falsafiy g'oyalar hozirgi mustaqillik sharoitida ham o'z tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Mamlakatimiz istiqboliga erishgach Berdaq hayoti va ijodiga munosabat tubdan o'zgardi. Berdaq

milliy muzeyi tashkil etildi. Har bir xalqning o'zligini, milliy mavqei va qadr – qimmatini dunyoga tanituvchi ulug' farzandlari bo'ladi. Ularning qoldirgan o'lmas meroslari ayni xalqning nafaqat o'tmishini, balki buguni va kelajagini ham belgilaydi. Biz bu ulug' Berdaq shoirni nafaqat qoraqalpoq, balki butun o'zbek xalqimizning ana shunday ardoqli farzandi sifatida ko'ramiz. Ilm – fan taraqqiy etmagan davlatda erkin va farovon jamiyat qurib bo'lmaydi. Berdaqning hayot yo'li va ijodi haqida qancha ko'p so'zlasakda shuncha oz. Shuning uchun Berdaq hayoti va ijodi haqida nafaqat yoshlarimizga, balki jamiyatning har bir qatlamiga tanishtirib o'tishimiz lozim.

“O'zbekkino” milliy agentligi buyurtmasiga binoan “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasi tomonidan Berdaq hayoti va ijodi haqida “Amu sohili kuychisi” nomli hujjatli film suratga olinmoqda. Mazkur film yetuk shoir, qoraqalpoq mumtoz adabiyoti asoschisi Berdaq taxallusi bilan ijod qilgan Berdimurod Qarg'aboy o'g'li haqida bo'lib, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 – yil “Adiblar xiyoboni”ga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar ijrosi doirasida tasvirga olinmoqda. Senariy muallifi Kengesbay Karimov, rejissyor Bektileu Nizamatdinov, operator Asenbay Asqarov, kartina direktori Baxtiyor Madiyarov. Filmni suratga olish ishlari Qoraqalpog'istonning Bo'zatov tumani Berdaq bog'i, Qoraqalpoq Davlat Universiteti, Berdaq muzeyi va boshqa joylarda bo'lib o'tmoqda. Undan tashqari, Berdaq nomiga atab, Qoraqalpog'iston Davlat Universiteti ham bunyod etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tanlangan asarlar, Nukus. 1956.
2. O'zME. Birinchi jild, Toshkent.2000.
3. B. gurbanboyev Berdaq va o'zbek adabiyoti, T.:2001.
4. Из каракалпакской классики “БЕРДАХ”
5. E. Yusupov. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.:”Universitet”,2000.